

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**A COLORFUL IMAGE OF THE UNIVERSE AND ITS EXPRESSION IN LANGUAGE****Ranakhan Ahmadaliyevna Ubaydullaeva**

Lecturer

IDUM 2

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Keywords: Linguistic landscape of the world, language levels, semantic field, color-expressing units, color-expressing phrases, word combinations, quality vocabulary.

Received: 07.01.24**Accepted:** 09.01.24**Published:** 11.01.24

Abstract: In linguistics, color-representing units present in the language are of great help in describing the color of things in the world, in their linguistic representation. In this article, we have analyzed that the units expressing the meaning of color in languages belong to different levels and that the common color in speech represents a grammatical meaning.

OLAMNING RANGIN TASVIRI VA UNING TILDA IFODALANISHI**Ra'noxon Ahmadaliyevna Ubaydullaeva**

o'qituvchi

2-IDUM

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Olamning lisoniy manzarasi, til sathlari, semantic maydon, rang-tusni ifodalovchi birliklar, Rang-tus ifodalovchi iboralar, So'z birikmalari, Sifat so'z turkumi.

Annotatsiya: Tilshunoslikda dunyodagi narsalarning rang bo'yog'ini tasvirlashda, ularning lisoniy tasvirida tilda mavjud bo'lgan rang-tus ifodalovchi birliklarning xizmati katta. Mazkur maqolada tillarda rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklar turli sathga mansub bo'lishi hamda nutqda umumiy rang grammatik ma'no ifodalashini tahlil etdik.

ЦВЕТНЫЙ ОБРАЗ ВСЕЛЕННОЙ И ЕГО ВЫРАЖЕНИЕ В ЯЗЫКЕ**Ранахан Ахмадалиевна Убайдуллаева**

преподаватель

ИДУМ 2

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Лингвистический ландшафт мира, языковые уровни, семантическое поле, цветовыраженные единицы, цветовыраженные словосочетания, словосочетания, качественная лексика.

Аннотация: В лингвистике цветообразные единицы, имеющиеся в языке, оказывают большое подспорье при описании цвета вещей мира, в их языковом представлении. В этой статье мы проанализировали, что единицы, выражающие значение цвета в языках, относятся к разным уровням и что общий цвет в речи представляет собой грамматическое значение.

KIRISH

Olamning lisoniy manzarasi tushunchasi olam rang bo'yog'ining lisoniy tasviri tushunchasini ham qamrab oladi. Inson tilda tashqi olamdagi narsa-predmetlarni rang bo'yog'idan ajratgan holda tasvirlamaydi. Narsa-predmetlar rang bo'yog'i bilan birga idrok etilar ekan, ularning tilda tavsirlanishida bu belgisi ham, albatta, inobatga olinadi. Masalan, paxtaga tavsif berishda uning oq rangi, osmon tasvirida uning moviy tusda ekanligi tilga olinadi. Bu holat inson xotirasida predmet va uning rang bo'yog'i bir-biridan xoli holda jonlanmasligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, inson tashqi olamni uning rang bo'yoyog'i bilan birga obrazli idrok etadi. Shu ma'noda tashqi olamning lisoniy manzarasida uning rangin tasviri ham o'rin oladi.

ASOSIY QISM

Olamning rang bo'yog'i lisoniy tasvirida tilda mavjud bo'lgan rang-tus ifodalovchi birliklarning xizmati katta. Har bir tilda so'z hosil qilishning ichki va tashqi imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan rang-tus ma'nosini ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar tilda inson ko'ruv sezgisi orqali his qilinadigan eng muhim ranglar va rang tuslarini nomlab keladi. Ammo barcha tillarda bunday so'zlar miqdor jihatdan chegaralangan bo'lib, ular turli ranglarni hosil qilishda ishtirok etuvchi markaziy ranglar, shuningdek, bu ranglar qo'shilmasidan hosil bo'lgan ranglar, rang tuslari nomini bildiradi. Shu bilan birga, ko'p tillarda rang-tus ma'nosi ayrim frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar yordamida ham hosil qilinadi. Bu holat olamning rang bo'yog'ini tilda aks ettirish imkoniyati kengligi, rang-tus ifodalovchi birliklar turli sath birliklaridan tashkil topishini ko'rsatadi.

Tilshunoslikda rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklar turli sathga mansub bo'lishi hamda nutqda umumiy rang grammatik ma'nosini hosil qilishi e'tirof etiladi. Shu jihatdan turli tilshunosliklarda rang-tus ifodalovchi birliklar funksional-semantik maydonga birlashtirilib o'rganildi. Masalan, rus tilshunosligida V.A.Moskovich, A.S.Virodova rus tiliga mansub rang-tus bildiruvchi leksik, grammatik birliklarni leksik-semantik maydonga birlashtirgan tarzda tadqiq etishgan. O'zbek tilshunosligida D.Lutfullaeva o'zbek tilidagi turli sathga mansub rang-tus

ifodalovchi birliklarni rang semantik-funksional maydoniga birlashtirdi. U bu maydonga quyidagi til birliklarini kiritdi:

“1. Tabiatdagi asosiy ranglarni anglatuvchi leksik birliklar: *oq, qora, sariq, qizil, yashil, ko‘k* kabilar.

2. Biror rang-tusga moyillikni, rang-tus belgisining miqdoriy darajasini anglatuvchi leksik birliklar: *ko‘kimtir, yashilsifat, qoramtir, qizg‘ish, oqish, och ko‘k, to‘q qizil* kabilar.

3. Rang-tus ifodalovchi iboralar: *oq sariqdan kelgan, qoradan kelgan* kabilar.

4. Rang-tus ifodalovchi so‘z birikmalari: *qizil tusli, qora rangli, to‘q jigarrang, och kulrang, och yashil rang* kabilar.

5. Rang-tus bildiruvchi gaplar: *Bu rang tillarang hisoblanadi. Qizg‘ish qizil rangga moyil rangdir.*

6. Rang-tus bildiruvchi leksemalar ishtirokida hosil bo‘lgan birliklar (ibora, maqol, topishmoq, tez aytilish, tasviriy ifoda, o‘xshatishli konstruksiyalar): *ko‘ngli qora, qorasini ko‘rsatmoq, ko‘zining oqu qorasi, Oqni oq, qorani qora demoq, Oq qopqoqqa qora qopqoq, qora qopqoqqa oq qopqoq, oq oltin, qora oltin, paxtadek oppoq, sutdek oq* kabilar”.

Bizningcha, rang-tus semantik-funksional maydoni tarkibidan *qoraymoq, oqarmoq, sarg‘aymoq, qizarmoq, ko‘karmoq* kabi rang-tus ifodalovchi sifatlardan yasalgan fe‘l leksemalar ham o‘rin olishi maqsadga muvofiq. Chunki bu fe‘llarda asos qismdan anglashlgan rang ma‘nosi so‘z yasallish jarayonida butunlay o‘chib ketmaydi. Shu sababli yasalmalar semantikasida rang ma‘nosi ham anglashiladi. Masalan, *Ko‘chada allaqachon quyosh chiqqan bo‘lishiga qaramay, bu yerdagi shishasi qoraygan yettinchi chiroq pilpillab yonmoqda* (G‘.G‘ulom. «Tanlangan asarlar») gapida qo‘llangan *qoraygan* fe‘l shakli harakatni ifodalasa-da, yettinchi chiroq shishasining qora rangda ekanligiga ham ishora qilib turadi. Albatta, bunday vaziyatda predmetning rang bo‘yog‘i yashirin tarzda ifodalanadi.

Yoki: *Yuzlari bo‘zday oqarib, yupqa lablari titrab ketibdi* (G‘.G‘ulom. «Shum bola») gapida qo‘llangan *oqarmoq* fe‘l shakli orqali uning yuzlari bo‘z kabi oq tusga kirganligi anglashiladi.

Xarakterli jihati shundaki, gap tarkibida qo‘llangan *qoraymoq, oqarmoq, sarg‘aymoq, qizarmoq, ko‘karmoq* fe‘llari orqali o‘tgan zamonda amalga oshgan harakat ma‘nosi ifodalangan holatlarda ushbu fe‘llar orqali gapda rang bildiruvchi axborot yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatda yuz bergan harakatning natijasi sifatida gapdan predmetning rang bo‘yog‘i haqidagi axborot anglashiladi. Yuqorida tahlil qilingan birinchi gapda qorayish harakatining natijasi sifatida shishaning qora rangga kirganligi; keyingi misolda yuzning oqarishi natijasida uning oq tusga kirganligi ma‘nosi ifodalangan.

Agar gapda qo‘llangan *qoraymoq, oqarmoq, sarg‘aymoq, qizarmoq, ko‘karmoq* fe‘llari orqali harakatning davom etayotganligi, kelgusida bajarilishi rejalashtirilganligi ifodalansa, gapdan predmetning rang bo‘yog‘ini aks ettiruvchi axborot anglashilmaydi. Masalan, *Kuz kelsa, daraxt*

barglari sarg'ayadi gapida qo'llangan sarg'aymoq fe'li orqali daraxt barglarining sariq tusga kirganligi ma'nosi anglashilmaydi. Agar gapda sarg'aymoq fe'li o'tgan zamon shaklida qo'llansa, daraxt barglarining sariq rangga kirganligi anglashiladi. Qiyoslang: Kuz kelib, daraxt barglari sarg'aydi (Daraxt barglari sariq)

Xuddi shunday, rang-tus ifodalovchi so'zlardan yasalgan *qoraqosh, oqqush* kabi qo'shma so'zlar semantikasida ham rang ma'nosi saqlanib qoladi. Masalan: *Abdulla qoraqoshga shogird tushgan, uyiga suv tashib, ot boqib yuribdi* (G'.G'ulom. «Shum bola») gapida Abdullaning qoshlari qora ekanligi anglashiladi.

Anglashiladiki, tilda rang-tus ma'nosi nafaqat rang ifodalovchi ayrim so'zlar, balki ular ishtirokida hosil qilingan fe'l, ot yasalmalar, frazeologik birliklar, hatto sintaktik birliklar orqali ham ifodalanadi.

Tashqi olamning rang bo'yog'i tasvirida rang-tus ifodalovchi so'zlarning qanday predmetlarga nisbatan qo'llanishi muhim o'rin tutadi. Rang-tus ifodalovchi so'zlar qanday predmetlarning rang xususiyatini aks ettirishiga ko'ra yangi qirralarga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqi tunga nisbatan *qop-qora* so'zini ishlatib, rus xalqi tunga nisbatan oq so'zini (*belые но́чи*) ham qo'llaydi. Bu holat Rossiya o'lkasida oq tunli kunlar ham kuzatilishi bilan bog'liq.

Tashqi olamning rang bo'yog'i tasvirida til egalarining nafaqat rang haqidagi umumiy bilimlari, shuningdek, kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'luvchi qobiliyatlari ham muhim o'rin tutadi. Rassom olamni turli ranglarda chiza olgani kabi so'z ustalari ham tashqi dunyo, undagi predmetlar rang-tusini turli birliklar orqali tasvirlay olishadi. Shu sababli badiiy asarlarda olamning rang bo'yog'i tasvirida o'ziga xos ifodalar kuzatiladi. Bu holat har bir tilda rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklar barcha til egalari uchun umumiy bo'lsa-da, predmetlar rang bo'yog'iga tavsif berishda ulardan foydalanish, ranglarga bo'lgan munosabat turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Inson olamning rang bo'yog'ini tilda tasvirlashda faqat eng muhim ranglar nomidan foydalanadi. Qizig'i shundaki, biror bir predmetning til egasi tomonidan idrok etilgan rang bo'yog'i garchi aynan qizil yoki sariq rang bo'lmasa-da, bu ranglarga moyil, o'xshash bo'lsa, u bu predmet rangini yangi so'z bilan nomlamaydi. Balki *qizilga yaqin, qizg'ish; sariqqa moyil, sarg'ish, sarg'imir* kabi birliklardan foydalanib, predmetning rang bo'yog'iga tavsif beradi. Bizningcha, til egalari idrok etadigan rang ottenkalari nihoyatda ko'p bo'lganligi sababli ularga nom berishda o'xshatish, qiyoslash usulidan foydalanadi. Zero, tashqi olamni bilishda o'xshatish, taqqoslash usuli eng faol bo'lib, rang, ranglar ottenkasiga tavsif berishda ham shu usul yordamga keladi.

Yana bir jihat shundaki, asosiy ranglar birikuvidan hosil bo'lgan qo'shimcha ranglar, rang ottenkalarining idroki har bir insonda har xil kechadi. Bu holat ham tilda rang ottenkalarini alohida nomlashda qiyinchilik tug'diradi.

Olamning rang bo'yog'ini tilda aks ettirishda til sohiblarining ranglarga bo'lgan munosabati, milliy-madaniy qarashlari, urf-odatlar ham yuzaga chiqadi. Masalan, o'zbek xalqi tabiat tasvirida *yashil*, *sariq*, *qizil* so'zlariga ehtiyoj sezishsa, tundrada yashovchi kishilar *oq* so'zidan unumli foydalanishadi.

XULOSA

Umuman, inson tomonidan idrok etiladigan ranglar, rang ottenkalarini bildiruvchi so'zlar olamning rang bo'yog'ini aks ettirishda muhim o'rin tutadi. Bunday so'zlar miqdori predmetning rang bo'yog'i har gal turlicha idrok etilganda ham o'zgarmaydi. Hatto predmetlarning rang bo'yog'i muayyan darajada o'zgarib, yangi tusga kirganda ham tildagi rang-tus funksional-semantik maydonidan bu rangga mos so'z tanlanib, predmetning rang bo'yog'iga tavsif beriladi. Shu sababli garchi ranglar birikuvidan yangi rang yoki rang ottenkasi hosil qilinsa-da, tilda rang-tus ma'nosini ifodalovchi birliklar miqdori yashin tezligida o'sib bormaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Москович В.А. Семантическое поле цветообозначений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1965. – 18 с.; Выродова А.С. Лингвокультурологическое пространство колоративов в русском поэтическом дискурсе первой половины XX века: на материале поэтических текстов С.А. Есенина и Н.М. Рубцова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2008. – 224 с.
2. Лутфуллаева Д, Ахмедова Н., Ахмедова А., Сайдалимова М. Тилшуносликнинг замонавий йўналишлари. – Тошкент, 2024.